



2017 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **144,2 trln.so'mni**, o'sish **7,0 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-102,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **38,9 %**
- Sanoatda kichik biznesning ulushi – **39,6 %**
- Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi – **26,7 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2017 yil yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 144,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,2 punkt), tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 12,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 1,3 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 4,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,4 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 13,5 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,1 punkt) o'sishi hisoblanadi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoatda 112,7 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 78,1 % ni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 18,3 trln.so'mni (12,7 % ni), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashda 12,1 trln.so'mni (8,4 % ni) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 1,1 trln.so'mni (0,8 % ni) tashkil etdi.

Natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi
(kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz)

	2017 yil	2016 yil	O'sish sur'ati, foizda
--	----------	----------	---------------------------

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

ko'mir, ming tonna	4038,6	3867,3	104,4
neft, ming tonna	806,0	860,1	93,7
tabiiy gaz, mln.kub.metr	56417,6	56132,1	100,5
chaqiq tosh, ming tonna	2090,9	1503,2	139,1
shag'al, ming tonna	1310,4	1074,3	122,0

Qayta ishlash sanoati

shakar, ming tonna	473,3	535,0	88,5
ko'k choy, tonna	2050,0	1682,0	121,9
o'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	207,9	197,1	105,4
paxta tolasi, ming tonna	951,9	1034,5	92,0
avtomobil benzini, ming tonna	1106,2	1134,6	97,5
dizel yoqilg'isi, ming tonna	962,9	1008,4	95,5
portlandtsement, ming tonna	8497,3	8222,3	103,3
yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz), dona	135471	85674	158,1

	2017 yil	2016 yil	O'sish sur'ati, foizda
shu jumladan:			
"Nexia"	34544	32166	107,4
"Damas"	22496	16817	133,8
"Spark"	22360	17735	126,1
"Gentra"	19164	9443	2,0 m.
"Cobalt"	18014	3880	4,6 m.
"Matiz"	13002	2933	4,4 m.
"Kaptiva"	4540	2148	2,1 m.
"Malibu"	963	216	4,5 m.
"Orlando"	388	336	115,5
yuk avtomobillari, dona	3778	3516	107,5
avtobuslar, dona	1057	908	116,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
elektr energiyasi, mln.kVt/s	60092,3	58319,1	103,0
issiqlik energiyasi, ming Gkal.	27365,0	28648,8	95,5


Tog'-kon sanoatida chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,1% ga, shag'al - 22,2 % ga, ko'mir - 4,4 % ga, tabiiy gaz - 0,5 % ga oshganligini va neft ishlab chiqarish hajmining 6,3% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Qayta ishlash sanoatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 58,1 % ga, ko'k choy - 21,9 % ga, avtobuslar - 16,4 % ga, yuk avtomobillari - 7,5 % ga, o'simlik moylari - 5,4 % ga oshganligini va shakar, paxta tolasi, dizel yoqilg'isi va avtomobil benzini ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 3,0 % ga oshib, 60 mlrd. kVt/s tashkil etganligini, issiqlik energiyasini esa 4,5% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida Toshkent shahar (umumiy hajmning 19,6 % ulushini), Toshkent (14,6 %), Andijon (9,2 %), Navoiy (9,1 %), Qashqadaryo (7,5 %), Farg'ona (6,7 %) va Samarqand (6,4 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Surxondaryo (1,5 %), Jizzax (1,6 %), Sirdaryo (2,4 %), Namangan va Xorazm (2,7 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.


2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlarning respublika jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan 125,8 % ga), Xorazm (115,5 % ga) va Namangan (107,3 % ga) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (109,4 % ga) va Toshkent shahrida (109,2 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Tayyor mahsulot turlarining kengayishi va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, iste'mol tovarlar ishlab chiqarilishining 2016 yil yanvar– dekabr oylariga nisbatan (102,7 % ga) o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,9 % ni tashkil etdi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tabaqalanishining tahlili Navoiy viloyati (13772,5 ming so'm), Toshkent shahri (11579,3 ming

2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



so'm), Toshkent viloyatida (7401,8 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (4451,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlar, mahalliy ahamiyatga ega korxonalar (davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalarsiz) rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,0 trln.so'mni tashkil etib (jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 52,7 %), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga o'sishi ta'minlandi.


Respublika bo'yicha ushbu korxonalarining ishlab chiqarish hajmi eng ko'proq Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlari korxonalari salmog'iga to'g'ri keladi. Eng yuqori o'sish sur'atlari esa Toshkent shahrida (109,9 %), Toshkent (108,7 %), Namangan (107,0 %), Farg'ona (106,1 %) va Andijon (105,7 %) viloyatlarida ta'minlandi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida mahalliy ahamiyatga ega korxonalar va davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar ulushi
(jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)




Ayni paytda respublikada 49 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, shu jumladan 10,2 mingta korxonalar 2017 yil yanvar–dekabr oylarida tashkil etilgan bo'lib, ulardan: Toshkent shahriga 2,6 mingta korxonalar, Farg'ona viloyatiga 1144 ta korxonalar, Toshkent viloyatiga 1057 ta korxonalar, Samarqand viloyatiga - 895 ta, Namangan va Andijon viloyatlariga 800 tadan ortiq korxonalar, Buxoro viloyatiga 500 taga yaqin korxonalar, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlariga 400 tadan ortiq korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlariga 300 tadan ortiq korxonalar, Navoiy va Sirdaryo viloyatlariga 200 tadan ortiq korxonalar to'g'ri keladi.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilgan choralar natijasida sanoatda band bo'lgan 1 kishiga mehnat unumdorligi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan 5,6% ga ko'payishi ta'minladi. Shu bilan birga, respublikada o'rtacha ko'rsatkichidan (68690,2 ming so'm) mehnat unumdorligi ko'proq ekanligi Toshkent shahrida (122498,6 ming so'm), Sirdaryo (100165,8 ming so'm), Qashqadaryo (99299,1 ming so'm), Navoiy (94884,4 ming so'm) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (81524,6 ming so'm) kuzatildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida sanoatda mehnat unumdorligi (sanoatda band bo'lgan 1 kishiga ming so'm)



Davlat statistika qo'mitasi

Sanoat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: J.Sharipov

Aloqa telefoni: (0371) 230-80-46